

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



O'RGANILAYOTGAN MAM'LAKAT TARIXI  
(TURKIYA)

FANINING O'QUV DASTURI

- Bilim sohasi: 200 000-San'at va gumanitar fanlar  
Ta'lif sohasi: 220 000-Gumanitar fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish  
(sharq tillari bo'yicha)

Toshkent – 2022

ОБЩЕСТВО НАУК И ТЕХНИКИ  
ОГНЬ И МАГИЯ В СТАРИННОМ  
ПОСЕЛКЕ



ОГНЬ И МАГИЯ В СТАРИННОМ ПОСЕЛЕНИИ  
(ФОТОГР.)

ФОТОГРАФИИ

Фото съёмка: Фотограф: Фотоаппарат: Фотоиздание:  
Фотоаппарат: Фотоаппарат: Фотоаппарат:  
Фотоаппарат: Фотоаппарат: Фотоаппарат:  
Фотоаппарат: Фотоаппарат: Фотоаппарат:

СССР - Москва

2

С. Г. Григорьев

Г. А. Кузьмин

Г. М. Григорьев

Г. А. Кузьмин

Fan / modul kodi MT108	O'quv yili 2022-2023	Semestr 2,3	ECTS - Kreditlar 4,4	
Fan / modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek / rus		Haftadagi dars soatlari 4,4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Turkiya)	120	120	240
2.	<b>I. Fanning mazmuni</b>			
<p>Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Turkiya tarixi) fanining nazariy va amaliy asoslari, Turkiya tarixini davrlashtirishning asosiy tamoyillari, Kichik Osiyo hududida turkiylarning paydo bo'lishi va ushbu mintaqada turkiy davlatlar tashkil etilishidan boshlab muhim tarixiy davrni yoritishga oid bir qator masalalarni, Kichik Osiyo hududidagi etno-madaniy jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, moddiy madaniyat xususiyatlarini o'rgatish hamda ularda xolisona ilmiy dunyo qarashni, ko'nikma va malaka hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanning maqsadi - turk tarixining kelib chiqishini aniqlash va turk etnosining paydo bo'lish bosqichlarini (miloddan avvalgi I ming yillik - X asr) kuzatish; mamlakat tarixining Saljuqiylar (XI-XIII asrlar), Usmoniyalar (XIV-XX asr boshi) va Turkiya Respublikasi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar, turk jamiyatining evolyutsion xususiyatlarini oshib berish; Usmoniyalar hokimiyatining xorijiy mamlakatlar bilan munosabatlarini ko'rib chiqish; talabalarda Turkiya tarixiga yagona jarayon sifatida qarashlarini shakllantirish, etno-konfessiyaviy institutlarning, shuningdek, ularning etnik-madaniy xususiyatlarini chuqur bilish asosida xorijiy Osiyo, bu holda turk, diasporalarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanishiga ko'maklashish, Usmoniyalar imperiyasi va Turkiya respublikasining tarixiy retrospektiv va zamonaviy Yevropa va Osiyodagi o'rnnini aniqlash kabi masalalarini oshib berish.</p>				
<p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. O'rganilayotgan mamlakat (Turkiya) tarixi faniga kirish</b></p> <p>Fanning maqsadi va vazifalari, o'tiladigan mavzularga tuzilmaviy mantiqiy chizma asosida tushuncha berish, Turkiya tarixini davrlashtirish masalalari, Turkiya tarixi tarixshunosligi, Turkiyaning tarixiy rivojlanishidagi umumiy va o'ziga xos muammolari, hozirgi Turkiya Respublikasiga doir</p>				

umumiy va o‘ziga xos ma’lumotlar, turli davrlarda Turkiyaning geografik hududi, Turkiyaning dunyo madaniyatida tutgan o‘rni va qo‘shgan hissasi.

## **2-mavzu. Qadimgi turklar (mil. av. I ming yillik - XI asr)**

Dastlabki ko‘chmanchi qabilalar va ularning Yevroosiyo etnik tarixidagi o‘rni. Qadimgi turklar: etnik tarixinining kelib chiqishi va asosiy bosqichlari. Birinchi buyuk xalqlarning ko‘chishi. Miloddan avvalgi I ming yillikning ikkinchi yarmida Yevroosiyoda yirik ko‘chmanchilikning shakllanishi. Qadimgi turklar haqidagi Xitoy va Vizantiya manbalari. O‘rxun-Enasoy yozuvlari va «O‘g‘uznom» qadimgi turklar tarixini o‘rganish manbalari sifatida. «Turk» etnonimining kelib chiqishi. Qadimgi turkiy xalqlarning shakllanishi va uning etnik tarixinining asosiy bosqichlari. Turkiyzabon qabilalar yashagan hududlar va ilk feodal O‘g‘uz davlatining tashkil topishi.

## **3-mavzu. XI - XIII asrlar birinchi yarmida Kichik Osiyo turklari**

Kichik Osiyo hududiga turkiylarning kirib kelishi. Kichik Osiyodagi Sharqiylar (Vizantiya) imperiyasi viloyatlarining turklar tomonidan mustamlaka qilinishi. Turkarning Islom dinini qabul qilishi va Islom dinining yoyilishi. Buyuk Saljuqiyalar davlati va ko‘chmanchi turkiy qabilalarning Kichik Osiyoga ommaviy bosqini. XI-XII asrlarda Kichik Osiyo hududida birinchi turkiy davlat tuzilmalarining paydo bo‘lishi. Rum Saljuqiyalar davlatining tashkil topishi. Salbchilar bilan urushlar. Kichik Osiyo Saljuqiyalari hukmronligi ostidagi Anado‘lu turk hukmdorlarining mulki.

## **4-mavzu. Kichik Osiyodagi Saljuqiyalar davlati**

Rum Saljuqiyalar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Davlat tashkilotining xususiyatlari. Saljuqiyalar jamiyatining madaniy va diniy hayoti. O‘zaro urushlarning tugashi va markazlashgan Rum Saljuqiyalar davlatining tashkil topishi. “Ijtimoiy islohot”. Agrar siyosat. Kichik Osiyo shaharlar. Ijtimoiy-diniy birodarlik «Axiy». Saljuqiyalar siyosiy tuzumining o‘ziga xos xususiyatlari. Huquqiy va harbiy tizim. Ommaviy tartibsizliklar. 1239 yildagi Bobo Is’hoq qo‘zg‘oloni.

## **5-mavzu. XIII asr 2-yarmida mo‘g‘ullar istilosi. Saljuqiyalar davlatining inqirozi**

Kichik Osiyoda mo‘g‘ullar istilosi. Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Kichik Osiyo. Saljuqiyalr davlatining yemirilishi. 1243 yildagi Kosedag‘ jangi. Xuluguiylar davlatining shakllanishi (Elxoniylar). Mustamlakachilar siyosati.

XIII asrning 60-70 yillarida mo'g'ullar va ularga tobe bo'lgan saljuqiy sultonlariga qarshi ommaviy xalq noroziliklari. Jimri boshchiligidagi 1277 yil qo'zg'oloni. Hulaguiylar davlatidagi siyosiy inqiroz. Kichik Osiyoda saljuqiylar tanazzulining kuchayishi. O'zaro ichki kurashlarning boshlanishi. Mahalliy aholining etnik, diniy va ijtimoiy bo'linishi jarayonlari. Mo'g'ullar va Saljuqiylardan mustaqil bo'lgan bekliklarning paydo bo'lishi.

### **6-mavzu. Mustaqil bekliklar davri**

Saljuqiylar davlatining inqirozi va birinchi beyliklarning paydo bo'lishi. Onadoli beyliklaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy jarayonlar. Yangi siyosiy birlashmalarining shakllanish jarayoni. Rum Saljuqiylar davlatining qulashi. Karamanli va Germiyon o'g'llarining Saljuqiylar mulki uchun kurashlari. XIV asr 20-30 - yillarda Egey amirliklarining paydo bo'lishi. Markaziy va Sharqiy Onadoli beyliklarining shakllanishi. Agrar munosabatlari. Qishloq aholisining ijtimoiy guruhlari. Beyliklarning savdo aloqalari. Kichik Osiyo shaharlari. Mahalliy yunon va arman aholisini islomlashtirish va turklashtirish jarayonlari. Usmonli turk tilidagi adabiy va ilmiy asarlarning paydo bo'lishi. Turk madaniyatining paydo bo'lishi turklarning etnogenez jarayonidagi eng muhim tarkibiy qismi.

### **7-mavzu. Usmoniylar davlatining tashkil topishi**

Usmoniylarining tashkil topishi. Usmoniylarning Janubi-Sharqiy Yevropadagi mustamlakachilik siyosati. Usmoniylar davlatining feudal munosabatlari, davlat tuzilishi va ijtimoiy tuzilishi. Usmoniylar beyligining shakllanishi, mustahkamlanishi va yuksalishi omillari. Usmoniy turklarning Kichik Osyoning Vizantiya hududlariga qarshi bosqinchilik harakatlari. Bolqonda Usmoniylar harbiy operatsiyalari. 1396 yildagi Yevropa feodallarining Kichik Osiyoga qilgan yurishlari. G'arbiy va Markaziy Onadolidagi Usmoniy fathlari. Usmoniylar davlatining ichki tuzilishining evolyutsiyasi. Davlat boshqaruvining harbiy-ma'muriy va harbiy-hududiy tashkiloti. Sipohiylar (timor) tizimining shakllanishi. Feodal yer egaligining shakllari. Dehqonlarning ahvoli. Usmoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida shaharlarning roli. Xorijiy tarixshunoslikda turk xalqining shakllanishi muammolari.

### **8-mavzu. XIV asrning birinchi yarmida Usmoniylar davlati**

Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi va Usmoniylarning hokimiyat uchun sulolaviy kurashi. 1415-1416 yillarda Usmoniylar jamiyatidagi ijtimoiy-sinfiy nizolar. Turklarning Janubi-Sharqiy Yevropadagi mustamlakachiligi. Usmoniylar ijtimoiy-siyosiy tizimining asosiy xususiyatlari. Kichik Osiyoga

Amir Temur qo'shinlarining bostirib kirishi. Anqara jangi va Sulton Boyazid I armiyasining mag'lubiyati (1402 yil iyul). Usmoniyalar mulklarining siyosiy parchalanishi. 1413 yildagi o'zaro ichki urushlar va Sulton Mehmed I ning hokimiyatga kelishi. XV asr birinchi yarmida Usmoniyalar davlatining ijtisodiy va siyosiy holati. Feodal munosabatlар va xalq ommasining ijtimoiy-ijtisodiy ahvoli. 1415-1416 yillardagi shayx Badriddin Simaviy boshchiligidagi dehqonlarning feedallarga qarshi harakatlari. Vatikan tashabbusi bilan salib yurishlari. Salibchilarning 1444 yil 10 noyabrda Varna yaqinida sulton Murod II qo'shinidan mag'lubiyatga uchrashi. XV asr birinchi yarmida Usmoniyalar ijtimoiy va siyosiy tuzumining asosiy xususiyatlari. Sipohiyalar (timor) tiziminining o'rnatilishi va Usmoniyalar hukmron jamiyatida ikkita asosiy guruhning shakllanishi. Harbiy o'zgarishlar. Harbiy qoziaskar institutining paydo bo'lishi. Shayxulislom lavozimining joriy etilishi.

#### **9-mavzu. Sultonlikdan imperiyaga (XV asrning ikkinchi yarmi)**

Konstantinopolning qulashi va Mehmed II ning Janubi-Sharqiy Yevropa va Kichik Osiyodagi istilolari. Usmoniyalar fathlari va uning turk xalqi etnodemografik holatiga ta'siri. Usmoniyalar jamiyatining ijtimoiy-ijtisodiy tuzilishi va davlat boshqaruvi tizimi. Rossiya-Turkiya diplomatik munosabatlarining boshlanishi. Usmoniyalar tomonidan Konstantinopolni egallanishi, uning Istanbul deb nomlanishi, Sulton qarorgohining Istanbulga ko'chishi (1453 y.). "Usmoniyalar imperiyasi" atamasining manbalarda qayd etilishi, Yevropa va islam dunyosida Usmoniy hukmdorlarining imperiya hukmdori sifatida tan olinishi (Qaysari Rum - Rim imperatori). Venetsiya va Genuya respublikalari bilan urushlar (1463-1479). Turklarning Kichik Osiyodagi yangi hududiy istilolari. Mehmed II ning ichki siyosati. Turklarning Bolqondagi mustamlakasi va aholisining bir qismini islomlashtirish. Turk xalqining shakllanishi. Feodal munosabatlarning rivojlanishi va ularni qonuniylashtirilishi. «Qonunнома» qonunlar to'plami. Harbiy-ma'muriy, moliyaviy va sud-diniy tizimlar. Agrar islohotlar. Turk shaharlari va madaniyati. Usmoniyalar imperiyasining tashqi siyosati.

#### **10-mavzu. XVI asrda Usmoniyalar imperiyasining mustamlakachilik siyosati**

Usmoniyarning Sharqqa yurishlari. Sharqiy Yevropadagi yurishlari. Usmoniyarning Markaziy va G'arbiy Yevropa davlatlari bilan olib borilgan urushlar. Usmoniyarning Safaviylar davlati bilan olib borgan urushlari. Armaniston, Kurdiston va Mesopotamiyaning Usmoniyalar imperiyasiga qo'shilishi. G'arbiy Osiyo va Arabistondagi istilochilik yurishlari. Misr (1517), Jazoir (1533), Tripoli (1551) va Tunisning (1574) bosib olinishi. Quyi Volga mintaqasida turk-tatar istilolari. Qrim tatarlarining Rossiya yerlariga hujumi.

Astraxan yaqinida Usmoniyalar qo'shinining mag'lubiyati (1596) va Moskva yaqinida Qrim qo'shinining mag'lubiyatga uchrashi (1572). Sultan Murod III (1592) tomonidan Qora dengizning barcha xorijiy kemalarga yopilishi. Sultan Sulaymon I ning O'rta yer dengizidagi harbiy yutuqlari. Ispaniya-Venetsiya flotining yo'q qilinishi (1538) va Jazoir sohilida Ispaniya flotining tor-mor etilishi (1541). Turklarning portugallar tomonidan Hind okeanida mag'lub etilishi (1538, 1550, 1552 va 1554). Moxachdag'i jang (1526) va Vengriya poytaxti - Buda shahrini sulton qo'shnirlari tomonidan egallanishi. Lepanto (1571) dengiz jangi va Muqaddas Liga eskadroni bilan birlashtirilgan Usmoniyalar flotining mag'lubiyati. Turklarning G'arbdagi muvaffaqiyatsizligi. Turk-Fransiya diplomatik aloqalarining o'rnatilishi (1534) va Avstriya Gabsburglariga qarshi Parij va Istanbulning birgalikdagi harakatlari. 1569 yilgi Usmoniyalar imperiyasi hududida fransuz savdogarlariga imtiyozlar berish to'g'risidagi kapitulyatsiya. Ingliz Levant kompaniyasining Yaqin Sharqda savdo qilish huquqi (1580). Rossiya-Turkiya munosabatlari.

### **11-mavzu. XVI asrda Usmoniyalar imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzilishi**

Usmoniyalar davlat hokimiyyati va boshqaruvin institutlari. Usmoniyalarda hokimiyatni meros qilib olish masalasi. Usmoniyalar jamiyatining ijtimoiy tuzilishi. Ommaviy g'alayonlar va qo'zg'olonlar. XVI asrda Usmonli-turk jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotining xususiyatlari. Feodal qonunchilik va mulkchilik tizimi. Musulmon bo'limgan aholining ahvoli. Xo'jalik hayoti. Agrar munosabatlari. Shaharlar, sanoat, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi. Usmoniyalar jamiyatining feodallashuvni va aksil Usmoniy kayfiyatining namoyon bo'lishi. 1513 yilda Onadolida shiyalarning qirg'in qilinishi. 1518-1519 va 1526-1527 yillarda Markaziy va Sharqiy Kichik Osiyodagi turklar va kurdлarning aksil-usmonli va feodallarga qarshi qo'zg'olonlari. Gayduklar harakati - Bolqon xalqlarining aksil-Usmoniy va aksil-feodal kurashi sifatida.

### **12-mavzu. Usmoniyalar imperiyasi inqirozining boshlanishi (XVI asr oxiri - XVIII asr boshlari)**

Usmoniyalar imperiyasining iqtisodiy tanazzuli. Usmonli harbiy-feodal davlatining siyosiy inqirozi. "Jaloliylar g'alayoni". Usmoniyalarning Eron va Yevropadagi urushlari. Usmoniyalar imperiyasining iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayot sohasidagi inqirozining asosiy belgilari. Sipohiyalar tizimining barbodbo'lish sabablari. "Narxlar inqilobi" va uning imperiya iqtisodiyotiga ta'siri. Hukumat inqirozi. Markaziy hokimiyatning zaiflashishi, viloyatlar va vassal davlatlardagi markazdan qochish tendensiyalarining kuchayishi. Anarxiya va anarxiya muhit. 1576-1590 yillarda Murod III ning Safaviylar Eroniga qarshi urushi va 1612-1639 yillardagi Eron-Turkiya mojarolari. 1592-

1605 yillarda Turkiyaning Avstriyaga qarshi urushi. 1621 yildagi Xatin jangi. Rossiya-Turkiya munosabatlari.

### **13-mavzu. XVII asrda Usmoniyalar imperiyasi**

Usmoniyalar davlatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. XVII asr ikkinchi yarmida Usmoniyalar imperiyasining xalqaro munosabatlari. Usmoniyalar jamiyatining madaniy va ma'naviy hayoti. Usmoniyalar jamiyatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozining asosiy jihatlari. Harbiy-feodal tizim inqirozi. Turk shaharlarining turg'unlik va tanazzuli belgilari. Shahar quiy tabaqalarini va dehqonlarning qo'zg'oloni. Bolqon, arab viloyatlari va Kavkazda turklar zulmiga qarshi kurash. Buyuk vazir Ko'pruluning ichki siyosati va islohotlari. Turkiyaning Yevropa va Kavkazdagagi bosqinchilik urushlari. Turk madaniyatining pasayishi. Saroy she'riyatining vakili Ahmad Nadim. Alovuddin Sobit ijodi. Naim, Mehmed Rashid, Chelebi-zoda Asim, Ahmad Rasmi tarixiy yilnomalari. Xalq san'ati: hikoyachilar - maddoxlar va soyalar xalq teatri – qorako'z.

### **14-mavzu. XVII asr oxiri – XVIII asr birinchi yarmida Usmoniyalar imperiyasi**

Turklarning Vena yaqinidagi mag'lubiyati (1683) va uning imperiya uchun oqibatlari. 1699 yilgi Karlovcha shartnomalari va 1700 yilgi Konstantinopol shartnomasi. Imperiya harbiy kuchining zaiflashishi. Harbiy tizimning inqirozi va Usmoniyalar hukumatining inqirozga qarshi urinishlari. XVII asr ikkinchi yarmidan Usmoniyalar imperiyasining ichki va xalqaro mavqeining yomonlashuvi. Usmoniy turklarning harbiy muvaffaqiyatsizliklari va uning asosiy sabablari. Usmoniylargacha qarshi xalq noroziligining kuchaytirish. Patron Xalil boshchiligidagi qo'zg'olon (1730).

### **15-mavzu. XVIII asr ikkinchi yarmida Usmoniyalar davlati**

Harbiy-len tizimining barbob bo'lishi. Turkiya iqtisodiyotidagi inqiroz. Armiya va flotdagi tartibsizliklar. Madaniyatning pasayishi. Turkiya tashqi siyosatida tajovuzkorlikning kuchayishi. 1768-1781 yillarda Rossiya va Turkiya o'rtaqidagi urushlar. Kichik-Qaynarcha va Yassi tinchlik shartnomalari. Turkiyaning Yevropa davlatlariga iqtisodiy va siyosiy qaramligining boshlanishi.

### **16-mavzu. Usmoniyalar imperiyasida inqirozning kuchayishi va islohotlarning boshlanishi**

XVIII asr oxirida Turkiyadagi tizimli inqirozning kuchayishi. Fath qilingan xalqlarning milliy ozodlik harakatining boshlanishi. Yevropa tipidagi

islohotlarni amalga oshirishdagi birinchi urinishlar. Yanicharlar korpusining barbob bo‘lishi. Turk armiyasining qayta tashkil etilishi. Mahmud II islohotlari. Gulxona xatti-sharifi (1839) va uning turk jamiyatini isloh qilishdagi ahamiyati. Yevropa kuchlarining Turkiya ustidan vasiyligini joriy etish.

### **17-mavzu. XIX asrdagi rus-turk urushlari va Turkiyadagi konstitutusyon harakatlar**

XIX asr boshidagi Turkiyaning xalqaro mavqeい. Rossiya-Turkiya munosabatlarining keskinlashuvi. 1806-1812 yillardagi rus-turk urushi va Buxarest sulhi. 1828-1829 yillardagi rus-turk urushi Andrianopol sulhi. 1841 yil bo‘g‘ozlar to‘g‘risidagi konvensiya tuzilgandan keyin Rossiya tashqi siyosiy ahvolining yomonlashishi. 1853-1856 yillardagi Qrim urushi. 1856 yildagi Parij tinchlik shartnomasi.

Konstitutsiyaviy harakatning paydo bo‘lishi. Yangi Usmoniyalar va ularning dasturi. Namiq Kamol va Ibrohim Shinasi faoliyati. Midhat poshshoning siyosiy faoliyati. Sulton Abdulazizni taxtdan ag‘darilishi. Birinchi Turkiya Konstitutsiyasining e‘lon qilinishi (1876). Uning turk jamiyatini siyosiy faolligini kuchaytirishdagi ahamiyati.

Turkiyaning harbiy mag‘lubiyatlari. 1877-1878 yillardagi rus-turk urushi. 1878 yildagi San-Stefan shartnomasi. Berlin traktati. Turkiyaning yarim mustamlakaga aylanishi.

Turkiya parlamentining tarqatilishi. Abdul-Hamid II ning reaksiyon rejimini kuchayishi.

### **18-mavzu. XX asr boshlarida Usmoniyalar imperiyasi**

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida imperiyadagi ijtimoiy va siyosiy munosabatlar. Yosh turklar harakatining boshlanishi. “Birlik va taraqqiyot” jamiyatining tuzilishi va uning Turkiyadagi va xorijdagи siyosiy faoliyati. Mustafa Kamol siyosiy faoliyatining boshlanishi va «Vatan» tashkiloti. Yosh turklar inqilobi. Uning ijtimoiy asosi va siyosiy yo‘nalishi. Burjua islohotlariga urinishlar. Yosh turklar tashqi siyosatidagi panturkizm konseptsiyasi.

Yevropa davlatlarining Usmoniyalar imperiyasini bo‘lib olish siyosati. Liviyaning yo‘qotilishi. Yosh turklar hukumati inqirozi. Tripolitaniya urushi (1911 y.). Bolqonda milliy ozodlik harakatining ko‘tarilishi. 1812-1813 yillardagi Bolqon urushi. Yosh turklar hukumatining qayta tiklanishi. 1813 yildagi London tinchlik shartnomasi. “Yosh turklar uchligi” diktaturasining o‘rnatalishi - Anvar Poshsho, Tal‘at Poshsho, Jamol poshsho. Birinchi Jahon urushi arafasida Turkiya-Germaniya munosabatlarining mustahkamlanishi. Turkiyaning 1-Jahon urushiga kirishi. Rossiya-Turkiya frontidagi operatsiyalar.

### **19-mavzu. Birinchi Jahon urushining Turkiya uchun oqibatlari**

Turkiyaning Birinchi Jahon urushidan chiqishi. Brest-Litovsk tinchlik bitimi va Mudros kelishuvi. Turkiya iqtisodiyoti va moliyaviy inqirozi. Turkiyaning bo‘linishi sababli ittifoqchilar o‘rtasidagi kurashning kuchayishi va uning hududini Antanta kuchlari tomonidan egallab olinishi. Mosul va Aleksandretaneng ingliz qo‘sishlari tomonidan bosib olinishi. Yunonistonning Izmirni bosib olishi. Turkiyada milliy ozodlik harakatining paydo bo‘lishi (1918-1920). Kichik Osiyoda mustamlakachilikka qarshi harakatlarning paydo bo‘lishi va uning harakatlantiruvchi kuchlari.

Turk partizanlarining bosqinchilarga qarshi kurashi va sultonning munosabati. Turk burjuaziysi sinfidagi anti-imperialistik kuchlarning izolyatsiya qilinishi. Vatanparvarlik tashkilotlarini shakllantirish. Mustafo Kamol ozodlik harakatining yetakchisi va yangi davlat apparati tashkilotchisi. “Huquqlarni himoya qilish jamiyat” ning Erzurum va Sivas kongresslari. Istanbul Deputatlar Palatasining tarqatilishi va Turkiya Buyuk Millat Majlisining chaqirig‘i. Milliy ozodlik harakatida xalq ommasining roli. “Yashil armiya” ning tuzilishi, uning tarkibi va mafkuraviy platformasi.

#### **20-mavzu. Turkiyaning mustaqillik uchun kurashi (1920-1922 yy.)**

Turkiyadagi milliy ozodlik harakatiga qarshi kurashda Antanta mamlakatlari va ittifoqchilarining vaqtinchalik yutuqlari. Istanbulning ittifoqchi kuchlar tomonidan bosib olinishi. Sevr shartnomasi Usmoniyalar imperiyasining bo‘linishi to‘g‘risidagi Versal “tinchlik tizimi” ning ajralmas qismi sifatida. Turkiyada xalq harakatining yangidan ko‘tarilishi. Muntazam armiya tuzish. London konferensiysi va uning muvaffaqiyatsizligi. Moskva konferensiysi.

Sovet-Turkiya do‘stlik shartnomasining imzolanishi (1921 yil 16 mart). Sokariyada yunon bosqinchilari ustidan qozonilgan g‘alaba (1921 yil sentabr) mustaqillik uchun kurashda hal qiluvchi burilish nuqtasi. Turkiya Kommunistik partiyasining qonuniylashtirilishi va uning Kamolchilar tomonidan mag‘lubiyatga uchratilishi. Yunon armiyasining turk qo‘sishlari tomonidan mag‘lubiyatga uchratilishi. Kichik Osiyoning Yunon bosqinchilaridan ozod qilinishi. Turkiyaning bo‘linishi bo‘yicha Antanta siyosatining barbod bo‘lishi,

#### **21-mavzu. Turkiya Respublikasining tashkil topishi**

Turkiya suverenitetining mustahkamlanishi. Mudan sulhi (1922). Turk burjuaziysi boshqaruvining mustahkamlanishi. 1921 yil Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unung eng muhim hujjatlari. Sultonlikning tugatilishi. Lozanna tinchlik konferensiysi. Kapitulyatsiyaning tugatilishi. Turkiyaning siyosiy mustaqillikka erishishi. Turkiyaning respublika deb e’lon qilinishi (1923 yil 29 oktabr). Xalifalikning tugatilishi. Milliy ozodlik harakatining natijalari.

## **22-mavzu. Turkiyaning mustaqillikni mustahkamlash uchun kurashi (1923-1933 yy.)**

Turkiya Respublikasining suverenitetini mustahkamlash davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari. Izmir iqtisodiy Kongressining 1923 yildagi qarorlari. Turkiya Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1924) va uning mohiyati. Kamolchilarga qarshi oppozitsiyaning faollashuvi. Progressiv Respublika partiyasining shakllanishi. Uning respublikaga qarshi faoliyati. Ichki tuzilmadagi o‘zgarishlar. Ta’lim, kundalik hayot va madaniyat sohasidagi islohotlar. Turkiya jahon iqtisodiy inqirozi davrida (1929-1933). Jahon iqtisodiy inqirozining Turkiyadagi ichki iqtisodiy va siyosiy vaziyatga ta’siri. Turkiya hukumatining xalqaro maydondagi mavqeini mustahkamlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun. Bojxona islohoti. Qishloq xo‘jaligi kooperativlari va yer solig‘i to‘g‘risidagi qonun. Turkiya valyutasini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun. Respublika Xalq partiyasining yangi dasturini qabul qilish (1931), M.K. Otaturkning oltita prinsipi. Xorijiy kapital mavqeining pasayishi. Yangi Usmonli qarz shartnomasi (1933). Xorijiy körxonalar va banklarni milliylashtirish. Ma’muriy islohotlar. Turkiyada ikki partiyalı tizimni yaratishga urinish. Liberal respublikachilar partiyasining tashkil topishi. Uning dasturi. Ishchilarning siyosiy faolligini kuchaytirish. Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjalarni qabul qilish uchun kurash.

## **23-mavzu. Turkiya 1933-1945 yillarda**

Ikkinci Jahon urushi arafasida Turkiyadagi ichki siyosiy inqiroz. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining birinchi besh yillik rejasini qabul qilish (1934). Turkiya hukumatining agrar siyosati. Qishloqda kapitalizmning rivojlanishi. Davlat sektorini kuchaytirish. Ikkinci besh yillik rejani qabul qilish atrofidagi siyosiy kurash. Xalq respublika partiyasining IV qurultoyi (1935). Partiyaning yangi dasturini qabul qilish. Turkiya Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgarishlar. Turkiya siyosiy hayotida millatchilikning kuchayishi. “Turar-joy to‘g‘risida” (1934), “Turkiya va chet el fuqarolarining harakati to‘g‘risida” (1938), “Familiyalar to‘g‘risida”gi (1934) qonunlar. Mayda millatlar kurashining kuchayishi. Ishchilar harakatining ko‘tarilishi. Mehnat to‘g‘risidagi qonun (1936) va Jamiyatlar to‘g‘risidagi qonunning (1938) qabul qilinishi. M. Kamol Otaturkning o‘limi. Turkiya hukumati siyosatidagi o‘nglar tendensiyasining kuchayishi.

Ikkinci jahon urushi boshlanganidan keyingi Turkiya hukumatining harbiy-siyosiy choralar. Turkiya armiyasini kuchaytirish. Siyosiy va iqtisodiy kuchlarning davlat qo‘lida to‘planishi. “Milliy himoya to‘g‘risida”gi qonun (1940). “Mamlakatning barcha sanoat korxonalarini nazorat qilish to‘g‘risida”gi farmon (1943). Turkiyaning harbiy tayyorgarligini kuchaytirish. Fashistlar Germaniyasi bilan do‘slik va hujum qilmaslik paktining imzolanishi (1942).

Gitler Germaniyasining SSSRga hujumi va Turkiyaning betarafligini e'lon qilishi. Germaniyaning Turkiyadagi mavqeini mustahkamlash. Turkiya hukumatining SSSR bilan urushga tayyorgarlik ko'rish choralar. Panturkizm va boshqa reaksiyon tashkilotlarning faolligi. 1945 yilda Turkiyaning Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qilishi. Ikkinchiji jahon urushining Turkiya uchun oqibatlari.

#### **24-mavzu. Turkiya ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda (1946-1960 yy.)**

Ikkinchiji Jahon urushidan keyin Turkiya iqtisodiy ahvolining yom'onlashuvni. Urushdan keyingi islohotlar. Agrar islohotlar. Saylov tizimidagi o'zgarishlar. Matbuot to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi. XRP mavqeining zaiflashishi. Bir partiyaviy tizimning inqirozi. Demokratik partiyaning tashkil topishi (1946) va uning dasturi. Boshqa partiyalarning paydo bo'lishi. Milliy uyg'onish partiyasi. Ijtimoiy adolat partiyasi. Turkiya ishchilar partiyasi. Turkiya ishchilar va dehqonlar sotsialistik partiyasi. Ularning mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotidagi ahamiyati. Partiyalarning hokimiyat uchun kurashini kuchayishi. 1946 yildagi parlament saylovleri. Hukumat repressiv harakatlarining kuchayishi. XRPning VIII s'ezdi (1947) va uning demokratiyaga qarshi yo'nalishi. XRPning ichki siyosati natijalari. 1950 yilgi parlament saylovleri. Demokratik partiyaning hokimiyat tepasiga kelishi. Demokratik partiya hukmonligi davrida Turkiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Mamlakat ichki siyosiy hayotidagi reaksiyonizmning kuchayishi. Otaturk tamoyillariga putur yetkazilishi. Progressiv va demokratik kuchlarni bostirish. Millatchilik va diniy omil. Mamlakatdagi ichki siyosiy kurash va muxolifat partiyalarining faoliyati.

#### **25-mavzu. 1960 yildagi davlat to'ntarishidan keyin Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi**

1960 yilda Turkiyadagi davlat to'ntarishi. Armiyaning Turkiyadagi siyosiy hayotga aralashishi. Demokratik partiyaning hokimiyatdan ketishi. Milliy birlik qo'mitasini (MBQ) shakllantirish. Uning tarkibi. MBQ farmonlari. Armiya rahbariyatidagi konservativ va radikal oqimlar o'ttasidagi kurash. "Yosh ofitserlar" guruhining mag'lubiyati. 1961 yil yangi Turkiya konstitutsiyasining qabul qilinishi va uning mohiyati. 1961 yildagi parlament saylovleri. Birinchi koalitsion hukumat tuzilishi. To'ntarishning asosiy natijalari. Turkiya siyosiy tizimidagi o'zgarishlar. Adolat partiyasi va Yangi Turkiya partiyasining tashkil topishi. Boshqa partiyalarning Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy rivojlanishga ta'siri. Siyosiy beqarorlikning kuchayishi. Koalitsiya hukumatining inqirozi. Yer islohoti loyihasi doirasidagi kurash. Kasaba uyushmalari harakatinining kuchayishi. Turkiya ishchilar kasaba uyushmalari konfederatsiyasining faoliyati («Turk-ish»). Kasaba uyushmalari

to‘g‘risidagi yangi qonunning qabul qilinishi (1963). Ish tashlashlar. Turkiya ishchilar harakatidagi kommunistik va sotsialistik oqimlar. Turk davlatining siyosiy rivojlanishida ziyyolilarning roli.

### **26-mavzu. 1970 yillarda Turkiyadagi siyosiy beqarorlikning kuchayishi**

Ko‘p partiyaviy tizim inqirozi. Turkiya Prezidentiga Oliy Harbiy Kengashning memorandumi (1971 yil 12 mart). S. Demirel hukumati iste’fosi. Hukumatga o‘nta so‘l partiya memorandumi (1971 yil 1 aprel). Mamlakatda favqulodda holat joriy etilishi. Ishchilar harakatining bostirilishi, so‘l tashkilotlar va nashriyotlarning mag‘lubiyati. Ijtimoiy-siyosiy inqiroz. Turkiyadagi terrorizm va uning rahbarlari. 1973 yil prezident saylovlar paytidagi siyosiy kurash. Kipr inqirozining Turkiyadagi ichki siyosiy hayotga ta’siri. B. Ejevit hukumatining hokimiyatga kelishi (1978). Mamlakatning ichki siyosiy hayotini barqarorlashtirishga urinishlar. S. Demirel hukumati (1979) – o‘nglar harakati.

### **27-mavzu. 1980 yildagi harbiy to‘ntarish va Turkiyaning rivojlanishi**

1970 yillarning oxirida Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning keskinlashuvi. Ishchi va kasaba uyushmalari harakatining kuchayishi. Turk Kommunistik partiyasi va boshqa ishchilar tashkilotlarini qonuniylashtirish uchun kurash. So‘l ekstremistik kuchlarning faollashishi. Turkiyadagi o‘ng qanot va neofashistik tashkilotlar. Mamlakatda bo‘layotgan inqirozning Turkiya matbuotida yoritilishi. Turkiyadagi harbiy to‘ntarish. Milliy xavfsizlik kengashining bayonoti. Siyosiy partiyalarning tarqatilishi. Yangi konstitutsiya va prezidentlik saylovlarining o‘tkazilishi. Turkiya parlamentiga saylovlar. T. Ozal hukumatining tuzilishi. Ekstremistik va so‘l tashkilotlar harakatlariga qarshi repressiya. Turkiya hukumatining ishchilar va kasaba uyushmalariga qarshi siyosati. Etatizmdan chiqish. Milliy kapital mavqeini mustahkamlash.

### **28-mavzu. 1990 yillarda Turkiya. Demokratik jamiatni shakllantirish muammolari**

Prezident S.Demirel hokimiyati. Bosh vazir Tansu Chillerning Turkiyani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanirish dasturi. Keng xususiy lashtirish sari. G‘arb investitsiyalarini jalb qilish. SSSRning parchalanishi munosabati bilan turk iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlarning ochilishi. 1990 yillarning o‘rtalarida Turk davlatidagi inqiroz alomatlarning kuchayib borishi. Kurd muammosining kuchayishi. Ishchilar ish tashlashlarining kuchayishi. Islomiy kuchlarning faollashishi va 1995 yildagi parlament saylovlarida “Farovonlik partiyasi” (Refah Partiyasi) g‘labasi. Hukumat inqirozi va N. Erbakan boshchiligidagi

koalitsion hukumat tuzilishi. Davlat apparati faoliyatiga islomiy kayfiyatdag'i kuchlarning ta'sirini kuchayishi. To'g'ri yo'l partiyasining inqirozi. T. Chillerning siyosiy maydondan chiqishi. Zamonaviy Turkiyada armiyaning mavqeい va uning K. Otaturk prinsiplarini qo'llab-quvvatlashdagi imkoniyatlari. XX asr oxirida Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi.

### **29-mavzu. 2000 yillarda Turkiya. Mo‘tadil islomchilar**

2001 yilda “Fazilat” partiyasi taqiqlangandan so‘ng, Turkiyada siyosiy Islomning ajralishi. Rejai Kutanning (an'anachilar) Baxt partiyasi va Rejep Tayyip Erdogan boshchiligidagi Adolat va Taraqqiyot partiyasining tashkil topishi va ularning siyosiy dasturlari. 2002 yildagi parlament saylovlarini va AKPning hokimiyat tepasiga kelishi. AKP bir partiyali hukumatni shakllantirishi. AKPning hukumat dasturi. 2002-2004 yillardagi konstitutsion o‘zgartishlar to‘plami. Harbiylarning Turkiya siyosiy tizimidagi rolining pasayishi. Milliy xavfsizlik kengashining vakolatlarini cheklash. Davlat xavfsizlik sudlarini tugatish. AKPning «laitsizm-laiklik» tamoyili talqini. AKPning Milliy masaladagi siyosati. 2007 yilda AKP hukumatining inqirozi, A.Gulning Turkiya Respublikasi prezidentligiga saylana olmaganligi. 2007 yilda muddatidan oldin o‘kazilagan parlament saylovlarini. AKPning yangi g‘alabasi va A.Gulning Turkiya Respublikasi prezidenti etib saylanishi. AKP hukmronligi davrida boshqa siyosiy partiyalarning faoliyati.

### **30-mavzu. Rajab Toyyib Erdogan prezidentligi davrida Turkiya**

2014 yil saylovlarini va Rajab Toyyib Erdogan prezidentlikka saylanishi. Rajab Toyyib Erdogan mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, aholi ijtimoiy-siyosiy hayotini liberallashtirish borasidagi islohotlari. Turkiyada davlat to‘ntarishiga urinish (2016 yil 15-16 - iyul). Turkiya konstitutsiyasiga o‘zgartirish bo‘yicha o‘tkazilgan referendum natijalarini (2017 y.). Turkiyada parlamentar boshqaruv shaklidan prezidentlik boshqaruv shakliga o‘tilishi. 2018 yildagi prezidentlik saylovi va Rajab Toyyib Erdogan qayta saylanishi. Turkiyaning Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikadagi siyosati. Kurdlar muammosi.

### **31- mavzu. Turkiyaning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o‘rni**

Turkiyaning NATO davlatlari bilan aloqlari. G‘arbiy Yevropa davlatlari bilan diplomatik munosabatlarning o‘ziga xos jihatlari. AQSH bilan munosabatlar. Rossiya bilan munosabatlar. Turkiyaning qo‘shti davlatlar bilan munosabatlarining chigallashuvi. Suriya mojarosiga aralashuv. Shimoliy Kipr masalasi va mazkur masalaning Turkiya uchun ahamiyati. Turkiy tilli davlatlar bilan olib borilgan o‘zaro manfaatli aloqlar. Turkiyaning ta’lim siyosati.

## **32. Turkiya va Yevropa Ittifoqi**

Turkiyaning Yevropa Ittifoqiga kirish uchun qilgan harakati va bu harakatning muvaffaqiyatsiz davom etishi. Yevropa Ittifoqiga kirish uchun Turkiyaga qo‘ylgan talablar va ularning mohiyati. Rajab Toyyib Erdoganning Yevropa Ittifoqiga kirishdan voz kechishi.

## **33. Turkiya va O‘zbekiston munosabatlari**

O‘zbekiston mustaqilligining Turkiya tomonidan bиринчи bo‘lib e’tirof etilishi, Turkiya-O‘zbekiston aloqalarining yo‘lga qo‘ylishi. Ikki davlat siyosiy munosabatlariidagi beqarorlik. Hamkorlik aloqalariga xalaqt bergan omillar. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rajab Tayyib Erdogan davrida ikki qardosh davlat munosabatlarining yangi mazmunu kasb etishi. Turkiya ishbilarmonlarining O‘zbekiston iqtisodiyotida asosiy sarmoyachi ekanligi. Qo‘shma korxonalar va ularning yo‘nalishi.

## **34. Turkiya xalqining madaniy va turizm salohiyati**

Turkiyada milliy-etnik masala. Turkiya xalqi madaniyatining mushtarakligi. Turkiya ta’lim tizimi. Turkiyada san’atning rivojlanishi. Turkiya geografik joylashuvining qulay va noqulay tomonlari. Turkiya turizmi – iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi.

### **III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar**

#### **Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Turkiyaning jahon tarixida tutgan o‘rni.
2. Mil. av. I ming yillik - XI asrlarda Kichik Osiyodagi etnomadaniy jarayonlar.
3. Kichik Osyo Vizantiya imperiyasi hukmronligi davrida.
4. Rum Saljuqiyalar davlatining tashkil topishi va rivojlanishi.
5. Rum Saljuqiyalar davlatining tanazzuli va mo‘g‘ullar istilosи.
6. Mustaqil bekliklar davrida Kichik Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
7. Usmonbekligi va uning markazlashgan davlat tuzish yo‘lidagi kurashlari.
8. XV asrning bиринчи yarmida Usmoniyalar davlatidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayot.
9. Usmoniyalar davlatining imperiyaga aylanishi va xalqaro maydondagи mavqeining kuchayishi.
10. Usmoniyalar imperiyasining XVI asrdagi istilochilik yurishlari.

11. XVI asrda Usmoniyalar imperiyasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyoti.
12. Usmoniyalar imperiyasi inqirozining boshlanishi (XVI-asr oxiri - XVII-asr boshlari).
13. XVII-asrda Usmoniyalar imperiyasida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayat.
14. Usmoniyalar imperiyasining zaiflashuvi (XVII asr oxiri-XVIII asr birinchi yarmi).
15. Usmoniyalar imperiyasining inqirozi (XVIII asr ikkinchi yarmi).
16. Usmoniyalar imperiyasi inqirozining kuchayishi va Tanzimat davri.
17. XIX asrdagi rus-turk urushlari va Usmoniyalar imperiyasining xalqaro maydondagi mavqeining zaiflashuvi.
18. Yosh turklar harakati va hukumati.
19. Usmoniyalar imperiyasing I jahon urushidagi ishtiroki.
20. I jahon urushi yakunlari va Turkiya mustaqilligi uchun kurash.
21. Mustaqil Turkiya Respublikasining tashkil topishi va Kamolchilik.
22. Mustafo Kamol Otaturk prezidentligi davrida Turkiya.
23. Turkiyaning II jahon urushidagi ishtiroki va uning oqibatlari.
24. Turkiya Demokratik partiya hukmronligi davrida (1950-1960).
25. 1960 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat.
26. 1970 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat.
27. 1980 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat.
28. 1990 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat.
29. 2000 yillarda Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayat.
30. Rajab Toyyib Erdogan prezidentligi davrida Turkiya Respublikasining ichki va tashqi siyosati.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

#### **IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar**

##### **Mustaqil ta'lif uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Turkiya tarixiga oid adabiyotlar tahlili.
2. Kichik Osiyo hududidagi qadimgi davlatlar (Xett, Frigiya va Lidiya).
3. Kichik Osiyo Vizantiya imperiyasi hukmronligi davrida.
4. Saljuqiylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayat.
5. Salib yurishlari davrida Kichik Osiyo.

	<p>6. Usmon beyligi va uning Kichik Osiyo beyliklari bilan munosabatlari.</p> <p>7. Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p>8. Culton Mehmed II tomonidan Konstantinopolning bosib olinishi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p>9. Usmoniyalar imperiyasining Yevropadagi istilochilik yurishlari.</p> <p>10. Usmoniyalar imperiyasining Sharqdagi istilochilik yurishlari.</p> <p>11. Usmoniyalar imperiyasining davlat boshqaruv tizimi.</p> <p>12. Usmoniyalar davrida adabiy hamkorlik.</p> <p>13. Usmoniyalar imperiyasida sud-huquq tizimi.</p> <p>14. Usmoniyalar imperiyasida yer egaligi tizimi.</p> <p>15. Usmoniyalar imperiyasida ta'lim tizimi.</p> <p>16. Usmoniyalar imperiyasida harbiy boshqaruv tizimi.</p> <p>17. Usmoniyalar imperiyasida yancharlar korpusi va uning faoliyati.</p> <p>18. Usmoniyalar imperiyasida islohotchilik harakatlari.</p> <p>19. Tanzimat davri va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p>20. Usmoniyalar imperiyasining G'arb davlatlari yarim mustamlakasiga aylanishi.</p> <p>21. Yangi Usmonlar jamiyati va uning faoliyati.</p> <p>22. Yosh turklar inqilobi va uning tarixiy ahamiyati.</p> <p>23. Usmoniyarning Birinchi jahon urushidagi ishtiroki va uning natijalari.</p> <p>24. Mustafo kamol Otaturk va uning siyosiy faoliyati.</p> <p>25. Turkiyaning Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki va uning natijalari.</p> <p>26. Turkiya Respublikasida ta'lim tizimi.</p> <p>27. Turkiya Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida islom omili.</p> <p>28. Turkiya Respublikasi ijtimoiy-siyosiy hayotida harbiylar omili.</p> <p>29. Turkiya Pespublikasida ko'ppartiyaviylik tizimi va uning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'siri.</p> <p>30. Turkiya Respublikasida sud-huquq tizimi.</p> <p>31. Turkiya shaharlari va turizm salohiyati.</p> <p>32. Turkiya ommaviy axborot vositalarining ochiqligi.</p> <p>33. Turk milliy bayramlari.</p> <p>34. Turkiya davlat boshqaruv tizimi.</p> <p>35. Turkiyanig biznes salohiyati</p> <p>36. Terrorizmga qarshi kurash borasidagi Turkiya tajribasi.</p> <p>37. Turk-kurd munosabatlari, mohiyati, muammoning so'nggi holati.</p> <p>38. Turkiya-O'zbekiston siyosiy munosabatlari: muammolar, yechimlar.</p> <p>39. Turkiyada fan va adabiyot.</p> <p>40. Turkiya va turkiytilli davlatlar munosabatlari.</p> <p>Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p>
3.	

## V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

### **Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:**

- O'rganilayotgan mamlakat tarixi (Turkiya tarixi) fanining maqsad va vazifalari, turk tarixining asosiy bosqichlari, Turkiyaning dunyo madaniyatiga qo'shgan hissasi mazmuni, insoniyat madaniyati tarixi kontekstida turkiy xalqlarning san'ati, madaniyati va urf-odatlari, Turkiya tarixiga oid asosiy manbalarning umumiyligi mazmuni, XI-asrdan to hozirgi kungacha bo'lgan Turkiyaning tarixiy rivojlanish tendensiyalari, Turkiya tarixining turli bosqichlarida uning shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillarning asosiy mazmuni, Turkiyada tarixan rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning o'ziga xos xususiyatlari, turklarning siyosiy madaniyati xususiyatlari va ularning mentaliteti, Turkiyada ijtimoiy va siyosiy institutlarning shakllanishi va faoliyatiga islomning ta'siri darajasi, Turkiya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlari, Turkiya tarixi bilan bog'liq bo'lgan muhim atamalarning ma'nosи, Turk tarixining muhim ijtimoiy-siyosiy vogeliklarining tarixiy kelib chiqishi va konteksti hamda ulardan ilmiy maqsadlarda foydalanish haqida tasavvur va bilimga ega bo'lishi;

- talaba tarixiy ma'lumotlarni ilmiylik, tarixiylik, xolislik asosida o'rganishi, internet ma'lumotlarini, Turkiya tarixining asosiy bosqichlari va huquqiy mazmuniini tahlil qilish, mustaqil ravishda Turkiya tarixi bo'yicha adapbiyot va manbalar bilan ishslash, Turkiyaning tarixiy rivojlanishining har bir bosqichidagi asosiy rivojlanish tendensiyalarini tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda turk siyosiy madaniyatining xususiyatlarini tushuntirish, Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy institutlarga islam omilining ta'sir o'tkazishi va uning darajasini tahlil qilish va aniqlash, Turkiya tarixining turli bosqichlarida uning asosiy parametrlari va yo'nalishlarini oqilona tahlil qilish, ko'rsatilgan atamalardan, shu jumladan ilmiy munozaralarda foydalanish, tarixiy va madaniy vogeliklarni tahlil qilish, Turkiya tarixiga oid manbalarni mustaqil tadqiq qilish va o'rganish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

- Turkiya va boshqa mamlakatlarning tarixiy jarayonini tahlil qilish, mustaqil ishslash, Turkiya tarixiga oid masalalar bo'yicha ma'lumot izlash, Turkiya tarixini, uning tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda batafsil tavsiflash, jahon tarixiy jarayoni kontekstida Turkiyaning tarixiy-huquqiy va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish va tushuntirish, ichki va tashqi omillarni hisobga olgan holda, tarixiy rivojlanishning turli bosqichlarida Turkiya tarixini tahlil qilish, Turkiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy tizimlarning tarixiy xilma-xilligini hisobga olgan holda siyosiy madaniyat va mentalitetning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, Turkiyaning tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida islam omili va uning turli xil ko'rinishlarini hisobga olgan holda tarixiy jarayonning asosiy yo'nalishlarini tushuntirish, Turkiya tarixi bo'yicha ilmiy adapbiyotlar va manbalaridan, shuningdek ularda mavjud bo'lgan atamalardan foydalanish, Turk tarixining asosiy parametrlari va

	tendensiylarini yoritish va tahlil qilish, Turkiya tarixining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini tahlil qilish, ilmiy tadqiqot institutlari fondlari materiallaridan foydalanish va amaliyatda qo'llash <b>malakalariga ega bo'lishi kerak.</b>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- ma'ruzalar;</li> <li>- interfaol keys-stadilar;</li> <li>- seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>- guruhlarda ishlash;</li> <li>- taqdimatlar qilish;</li> <li>- individual loyihalari;</li> <li>- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalari.</li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari hamda axborot manbalari</b></p> <p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirzayev Murodulla. Turkiya tarixi (Qadimgi davrlardan hozirgacha bo'lgan tarix). Darslik. – Toshkent, 2022. – 343 bet.</li> <li>2. Mirzayev Murodulla. Mamlakatshunoslik (Turkiya geografiyasi, tarixi, madaniyati va davlat tuzumi). O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – 546 bet.</li> <li>3. Ali Sevim, Erdogan Mercil. Seluklular devletleri tarigi: siyaset, teşkilat ve kültür. – Ankara: Türk tarih kütüphanesi basimevi, 1995. - S. 631</li> <li>4. Feridun M. Emecen. Osmanlı İmparatorluğu'nun Kuruluş ve Vükseliş Tarihi (1300-1600). – İstanbul: Ayhaç matbaasi, 2015. S. 489</li> <li>5. Kireyev N.G. Istorija Tursii XX vek. - Moskva: IV RAN: Kraft+, 2007. - 608 s.</li> <li>6. Tufan Gündüz. Osmanlı Tarihi El kitabı. – Ankara.-2012. S. 648</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlgilikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston», 2016.- 56 b.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: «O'zbekiston», 2017. - 488 b.</li> <li>3. R.Luis. Omsanskaya Tursiya. Bit, religiya, kultura / Per. s angl. L.A. Igorevskogo. – M.: ZAO Sentr-poligraf, 2004. - 239 s.4. Enver Behnan ŞapolVo. Osmanli Sultanlari Tarihi. – Istanbul, 1961. S. 510</li> <li>5. Stanford Shaw. HistorV of the Ottoman empire and modern TurkeV. – New York, Cambridge UniversitV Press, 2002. – 367 p.</li> <li>6. Osmanli Imparatorluğu Tarihi. E-kitap/<a href="http://aVrac.org">http://aVrac.org</a></li> </ol>

*feef*

**Axborot manbalari**

1. <https://www.historV.ru>
2. <https://turuz.com>
3. <https://www.ttk.gov.tr>
4. <https://www.academia.edu>

7. O'quv dasturi "Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasida ishlab chiqilgan va 2022-yil "\_\_\_" \_\_\_\_ dagi "\_\_\_"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2022-yil "30" "06" dagi "11"-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

D.S. Salayev - TDSHU, "Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasi mudiri

M.Mirzayev - "Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasi dotsenti, falsafa f.d.

Z.M. Qodirov - TDSHU, "Turkiy xalqlar tarixi, madaniyati, siyosati va iqtisodiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi

9. **Taqrizchilar:**

I.M. Shamsiyeva - TDSHU, "Sharq mamlakatlari tarixi va antropologiyasi" kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

D.J. Urakov- O'zMU "Jahon tarixi" kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).